



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

# O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI

Xalqaro ilmiy-amaliy  
konferensiya materiallari



2023-yil  
19-oktabr



Mas'ul muharrir:  
Sh. Sirojiddinov  
*filologiya fanlari doktori, professor*

**Tahrir hay'ati:**

O.Jamoldinova – ilmiy va innovatsiya ishlari bo'yicha prorektor  
H.Dadaboyev – filologiya fanlari doktori, professor  
B.Abdushukurov – filologiya fanlari doktori, professor  
Z.Xolmanova – filologiya fanlari doktori, professor  
M.Xakimova – filologiya fanlari doktori, professor v.b.  
M.Umurzoqova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
D.Muhammadiyeva - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
M.Shamsiyeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
K.Rixsiyeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
I.O'ravzova – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
S.Bozorova – katta o'qituvchi  
M.Xolmuradova — filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
Z.Davronova – o'qituvchi  
Z.O'ravzova – o'qituvchi  
A.Yusupova – o'qituvchi  
M.Abduzizova – o'qituvchi  
S.Qahhorova – tayanch doktoranti

*Ushbu ilmiy maqolalar to'plami O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoniga muvofiq "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiya"sida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2023-yilning 19-oktabr kuni ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida tashkil qilingan "O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallarini o'z ichiga oladi. Maqolalar o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, turkologiya, shevashunoslik, lug'atshunoslik, o'zbek tilshunosligidagi zamonaviy yo'nalishlar masalalariga bag'ishlangan. Maqolalarda o'zbek tilining tarixiy ildizlarini yoritish, mumtoz manbalardagi tilshunoslikka doir qarashlarni o'rganish, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, lingvopoetika, lingvofolkloristika, lingvodidaktika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi zamonaviy yo'nalishlarda integrativ yondashuv asosida tadqiqotlar olib borish, til nazariyasi va amaliy tilshunoslik, tarjimashunoslik muammolarini tahlil qilish o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Mazkur to'plam tilshunoslikka doir masalalarni o'zbek tili tarixi va bugungi taraqqiyotini uyg'unlikda hamda integratsiya asosida tadqiq qilishga yo'naltiradi. Mazkur to'plam professor-o'qituvchilar, doktorantlar, tadqiqotchilar, magistrantlar hamda barcha qiziquvchilarga mo'ljalangan. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2023-yil 7-oktabrdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan (2-sonli bayonnomasi)*

9. Rixsiyeva K.

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=DVyuIUAAAAJ&citation\\_for\\_view=DVyuIUAAAAJ:2osOgNQ5qMEC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=DVyuIUAAAAJ&citation_for_view=DVyuIUAAAAJ:2osOgNQ5qMEC)

10. Umurzoqova M. Umurzakova M. The age factor in the formation of a linguistic personality  
[https://www.researchgate.net/publication/361667526\\_The\\_age\\_factor\\_in\\_theFormation\\_of\\_a\\_Linguistic\\_Personality?tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InByb2ZpbGUiLCJwYWdlfjoiHJvZmlsZSJ9fQ](https://www.researchgate.net/publication/361667526_The_age_factor_in_theFormation_of_a_Linguistic_Personality?tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InByb2ZpbGUiLCJwYWdlfjoiHJvZmlsZSJ9fQ)

11. Xolmanova Z.

[https://www.researchgate.net/publication/358344028\\_Boburnoma\\_leksikasi\\_tadqiqi](https://www.researchgate.net/publication/358344028_Boburnoma_leksikasi_tadqiqi)

## ATOQLI SHEVASHUNOS OLIM (Шоназар Шоабдурраҳмоновнинг 100 йиллигига)

### FAMOUS DIALECTOLOGY SCIENTIST (To the 100th anniversary of Shonazar Shoabdurakhmonov)

Qodirov Umarjon

*Annotatsiya:* Maqolada akademik Shonazar Shoabdurahmonovning o'zbek shevashunosligi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari haqida so'z yuritiladi. Uning rus olimi, akademik V.V.Reshetov bilan ijodiy hamkorligida yaratilgan "O'zbek dialektologiyasi" kitobi sinchiklab tahlil qilinadi. Bu kitobning uzoq yillar davomida oliy o'quv yurtlari uchun asosiy qo'llanma bo'lib, keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun ham asosiy manba bo'lib qolgani ta'kidlanadi.

*Kalit so'zlar:* Shonazar Shoabdurahmonov, dialektologiya, sheva, tadqiqot, transkripsiya, qarluq, unlilar, undoshlar, tovush, talaffuz.

*Abstract:* The article talks about the research of academician Shonazar Shoabdurakhmanov on Uzbek dialectology. His book "Uzbek Dialectology", created in close collaboration with the Russian scientist, academician V.V. Reshetov, is carefully analyzed. It is noted that this book has been the main reference book for universities for many years and has become the main source for further scientific research.

*Keywords:* Shonazar Shoabdurakhmanov, dialectology, dialect, research, transcription, deafness, vowels, consonants, sound, pronunciation.

O'zbek shevashunosligi taraqqiyotida akademik Shonazar Shoabdurahmonovning juda ulkan xizmatlari bor. XX asrning 40-yillari oxirlarida ilm olamiga kirib kelgan yosh tilshunos dastlab badiiy matn tili bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. 1950-yillarning boshlaridan boshlab esa o'zbek shevashunosligi masalalari bilan shug'ullanma boshladidi. Bu sohada uning atoqli rus olimi, akademik Viktor Vasilevich Reshetov bilan ijodiy hamkorligi juda samarali bo'ldi. Bu ikki olim dastlab 1959-yilda hammalliflikda Oliy o'quv yurtlarining sirtqi ta'lim yo'nalishlari uchun "O'zbek dialektologiyasi" o'quv qo'llanmasini yozishdi. [Reshetov, Shoabdurahmonov, 1959]. Ushbu kitob o'zbek dialektologiyasi bo'yicha o'zbek tilida yozilgan eng dastlabki o'quv qo'llanma bo'lib, bu yo'lagini ilk tajriba edi.

1962-yilda mualliflar ushbu qo'llanmani qayta ishlab, to'ldirib, mukammal bir holatga keltirishdi va u oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari uchun darslik sifatida nashr etildi. [Reshetov, Shoabdurahmonov, 1962]. Darslik dialektologiya fani, transkripsiya, turkiy tillar klassifikatsiyasi, o'zbek tili va xalq shevalari, o'zbek shevalari fonetikasi, o'zbek shevalarining morfologiysasi va leksikasi, shuningdek, turli o'zbek shevalari bo'yicha yig'ilgan matnlardan

\* O'qituvchi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, umarqodirov6669@gmail.com

Imrat juda katta hajmdagi ma'lumotlarni qamrab olganligi bilan qimmatlidir. Kitob akademik M.V. Reshetov va Shonazar Shoabdurahmonovlarning o'zbek shevalari ustidagi uzoq yillik ilmiy xarishlari, kuzatishlari, fidokorona mehnatlari natijasida dunyoga keldi.

Kitob olti bobdan tashkil topgan. Birinchi bob “Dialektologiya fani” deb nomlangan unda dialektologiya tilshunoslikning alohida bir bo‘limi ekanligi, u biror tilning mavjud dialektlarini, mahalliy shevalarini o‘rganishi aytib o‘tilgan. Obyektni o‘rganish jihatidan dialektologiya ikki turli (tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya; tarixiy dialektologiya) sharti ta’kidlangan. So‘ng “sheva” “dialekt” terminlari izohlangan.

So'ng dialektologiyaning asosiy vazifasi, dialektlarni har tomonlama o'r ganish va tavsif sheva va dialektlar sistemasi, tavsifiy aspekt, tarixiy aspekt, sheva yoki dialektning tizimini, morfologik tizimini, sintaksisi va leksikani o'r ganish, o'zbek tili shevalarining bo'lgan va qardosh bo'lmagan tillar bilan munosabati kabi mavzular yoritiladi.

So'ng transkripsiya mavzusi keladi. Transkripsiya haqida umumiy ma'lumot berilgach, transkripsiya turlari (fonetik, fonematik yoki fonologik transkripsiya) xususida so'z yuritiladi. "Transliteratsiya" termini tushuntiriladi. Transkripsiyaning tuzilishi, lotin alifbosi asosida uzilgan transkripsiya (xalqaro fonetik alifbo) haqida ma'lumot beriladi. O'zbek tili dialekt va nevralarini o'rgangan turkolog va shevashunoslар o'z ilmiy ishlarida turlicha transkripsiya qililarini qo'llaganlari xususida to'xtab o'tiladi. So'ng ushbu darslikda ishlatilgan transkripsiya sistemasi haqida, ya'ni unlilarning turli variantlarini berish uchun 15 ta belgi olingani aytilgan. Keyin undosh tovushlarni ifodalash uchun kitobda ishlatilgan transkripsiya belgilari sanab o'tilgan. Ular o'zicha ishlatiladigan *ö*, *ð*, *ʒ*, *m*, *n*, *p*, *c*, *m*, *uu* tovushlaridan tashqari yigirma

Oxirida sheva materiallarini aks ettirishda qo'llanadigan diakritik belgilar va boshqa ifodalardan o'n ikkitasi to'g'risida ma'lumot berilgan.

Bob oxirida esa so‘z yuritilgan mavzularga taalluqli adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

Ikkinci bob “Turkiy tillar” deb nomlangan. “O’zbek dialektologiyasi” darsligining turkiy tillar haqida, ularning klassifikatsiyasi, ularning guruhlari, turkiy tillar bo‘yicha olib borgan olimlar haqidagi ma’lumotlarning kiritilishi, bizningcha, uncha to‘g’ri imagan. Bu talabani chalg‘itadi. Ushbu kamchilik darslikning 1978-yilgi nashrida mualliflar tuzatilgan, ya’ni keyingi nashrda ushbu bob olib tashlangan. [Reshetov, Shabdurahmonov, 1978]. Bu bob haqida to‘xtalib o’tirmaymiz.

"O'zbek tili va xalq shevalari" deb atalgan uchinchi bobda o'zbek tilining boshqa turkiy tillarga bo'lgan munosabati, o'zbek tili shevalarini o'rganishning ahamiyati, o'zbek xalq shevalari shakllanishida turkiy bo'lмаган tillarning (asosan, tojik tilining) ishtiroki, metisatsiya substrat tillarning aralashuvi), gibrildizatsiya (turli sistemadagi tillarning aralashuvi), substrat masalasi, o'zbek xalq shevalarini o'rganishda rus turkologlarining ishtiroki kabi masalalar umilgan. Bu sohada xizmat qilayotgan o'zbek dialektologlaridan Shonazar Shoabdurahmonov, Fazil Abdullayev, Fathulla Abdullayev, Xudoyberdi Doniyorov, Mustaqim Mirzayev, Ahmad Sharipov, Nazar Rajabov, Bolta Jo'rayev, Hisom G'ulomov, Shokir Afzalov, Yoqub Gulomovlarning ham ishlari e'tirof etilgan.

So'ng o'zbek shevalari turkolog va dialektologlar tomonidan qanday tasnif qilingani, olimlar tasnif qilgani xususida bat afsil ma'lumot beriladi. Dastlab professor I.I. Zarubin klassifikatsiyasi (Xiva, Farg'on'a, Toshkent va Samarqand-Buxoro shevalari), so'ng professor K.K. Yudaxin klassifikatsiyasi (asl turkiy tovush sistemasi va singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalari; o'z tovush sostavini qisman o'zgartirgan, singarmonizmni yo'qotgan shevalar; Eron unilari sistemasini saqlagan shevalar; o'zbek va tojik tillarida so'zlashadigan tojik shevalari, professor Y.D. Polivanov klassifikatsiyasi (chig'atoy, o'g'uz, qipchoq lahjalari), professor Olim klassifikatsiyasi (o'zbek-qipchoq; turk-barlos; Xiva-Urganch lahjalari) va professor A.K. Borovkov klassifikatsiyasi (O'rta o'zbek dialekti; Shayboniy-o'zbek yoki "j"lovchilar dialekti; Janubiy Xorazm dialekti; Alohidha grupp'a shevalar) haqida bat afsil to'xtab o'tiladi.

Oxirida professor V.V. Reshetov klassifikatsiyasi ustida so'z boradi. U o'zbek tili tarkibida bir-biridan farq qiluvchi uch dialekt mavjud, deb belgilaydi. Bular: 1) Qipchoq; 2) o'g'uz; 3) qarluq-chigil-uyg'ur dialektlaridir.

So'ng V.V. Reshetov qilgan klassifikatsiyaga batafsil to'xtab o'tiladi. Bu klassifikatsiyadagi har bir lajha qanday shevalar guruhidan tarkib topgani ham aytildi.

V.V. Reshetovning klassifikatsiyasi o'zbek shevalarining tarixiy-lingvistik xususiyatlarini va ayrim dialektlar bilan qo'shni tillarning (tojik, qozoq, turkman) munosabatini hisobga olgan holda tuzilganligi bilan alohida ajralib turishi ta'kidlangan.

Darslikning "O'zbek tili va xalq shevalari" nomli uchinchi bobি qiziqarli va foydali ma'lumotlarga boyligi, ular tushunarli hamda sodda bayon etilganligi bilan ajralib turadi. Bob oxirida mavzuga oid adabiyotlar ro'yxati tavsija qilingan.

Kitobning to'rtinchi bobи "Fonetika" bo'lib, bu bobda o'zbek xalq shevalarining tovush tarkibi o'r ganiladi. Bobning kirish qismida shevalararo unli fonemalarning son jihatidan munosabati, adabiy til bilan shevalar o'rtasidagi fonetik munosabatlar, o'zbek xalq shevalarida fonemalar soni, o'zbek shevalarida unlilarning lablanish-lablanmaslik hodisasi kabi mavzular yoritiladi. So'ng o'zbek shevalaridagi unlilar tizimi xususida so'z yuritilib, ularni yuqori ko'tarilish unli fonemalari:

- 2) lablanmagan yuqori ko'tarilish unli fonemalari; [и, ё, ь, ы];
- 3) lablangan yuqori ko'tarilish unli fonemalari [y, v];

Yuqori-o'rta ko'tarilish unli fonemalari:

- 1) lablanmagan yuqori-o'rta ko'tarilish [e], [э], [ɛ] va lablangan [o], [ə] unli fonemalari.
- 2) quyi ko'tarilish unli fonemalariga ajratib, ularning har biri batafsil tavsiflanadi.

So'ng o'zbek shevalaridagi undosh fonemalar haqida ma'lumot beriladi. O'zbek shevalaridagi undoshlar quyidagicha tasniflanadi:

- 1) Lab undoshlari;
- 2) til oldi undoshlari;
- 3) til oldi sonor tovushlari;
- 4) til o'rta fonemasi;
- 5) til orqa undosh fonemalari;
- 6) sayoz til orqa undoshlar;
- 7) chuqur til orqa undosh fonemalari;
- 8) bo'g'iz undoshlari.

Bu bobning "So'zning fonetik tuzilishi" faslida bo'g'inlarning turlari, akkomodatsiya, assimilyatsiya, singarmonizm, dissimilyatsiya, spirantizatsiya, eliziya, so'z formalarining torayishi, unli va undosh tovushlar orttirilishi, metateza kabi til hodisalari haqida ma'lumotlar beriladi.

Beshinchi bob "Morfologiya" bo'lib, bu bobda o'zbek shevalarining adabiy tildan farq qiluvchi morfologik xususiyatlari haqida so'z boradi. Dastavval kelishiklar haqida to'xtab o'tiladi. Barcha o'zbek shevalarida kelishiklar adabiy tildagidek oltita bo'lmay, ba'zilarida oltita, ayrimlarda beshta, ba'zilarida esa to'rta ekanligi ta'kidlanadi. So'ng kelishik qo'shimchalarining o'zbek shevalarida qanday shaklda kelish holatlari xususida so'z boradi. Har bir kelishik qo'shimchasi uchun shevalardan misollar keltiriladi. So'ng egalik va ko'plik kategoriyalari haqida ma'lumot beriladi. Keyin o'zbek xalq shevalarida shaxs-son, zamon formalari fe'llarda qanday tuslanishi masalasi yoritiladi.

Beshinchi bobning oxirgi mavzusi "So'z yasalishi"dir. O'zbek shevalarida ham adabiy tildagidek affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan so'z yasaladi. Shevalarda ham so'z yasalishi adabiy tildagidek, asosan, affiksatsiya yo'li bilan yuz beradi. Shu bilan birga ayrim o'zbek shevalarida adabiy tildagi ba'zi affikslar boshqa ma'noda (ya'ni adabiy tildagining aksi) ham qo'llanishi aytildi. Masalan: -чәнг//чән: Farg'ona, Andijon маҳсъчән//мәхсъчән (mahsisiz) – adabiy tilda "mahsichang" (mahsili, kalishsiz).

So'ng'ra o'zbek shevalarida uchraydigan ot, sifat, fe'l, ravish va boshqa so'z turkumlari yasovchi affikslardan 70 dan ortiq namunalar keltiriladi. Bob oxirida mavzuga oid adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Darslikning oxirgi, oltinchi bobi "Leksika" bobi bo'lib, unda dastavval o'zbek shevalarining leksik tarkibi to'g'risida umumiy ma'lumot beriladi. Keyin o'zbek xalq shevalarining adabiy tildan va bir-birlaridan o'zaro farqlanadigan leksik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, o'zbek xalq shevalari tarkibida ayrim shevalarning o'zigagina xos bo'lgan so'zlar ham uchrashi ta'kidlanib, ulardan misollar (masalan: арна, йап, (kanal, ariq) (Хоразм), чумәгәр (qurib ketkur – Farg'ona) keltiriladi. O'zbek shevalari tarkibida ma'lum bir hududda yashovchi aholi uchun xos bo'lgan ayrim so'zlar ham uchraydi. Masalan, turli yoshdag'i hayvon otlari (qipchoq shevalarida) shunday nomlanadi: qulun (bir yoshgacha bo'lgan ot), kaltatay (bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan ot), g'o'nan (ikkidan uch yoshgacha), do'nан (uchdan to'rt yoshgacha), beshli (uch-to'rtdan besh yoshgacha) va hokazo.

O'zbek shevalarining etimologik tarkibi xususida ham ushbu bobda so'z yuritiladi. O'zbek shevalarida tub turkiy so'zlar bilan birga arab, tojik va ruscha, internatsional so'zlar ham uchrashi, ular ma'lum bir fonetik o'zgarishlarga uchrab qo'llanishi, ayrimlari esa o'zlarining boshlang'ich ma'nolarini yo'qotib, yangi ma'no kasb etgani xususida ma'lumot beriladi va bunday so'zlarga misollar keltiriladi. Masalan: зэръл (< ar. ضَرْوَرٌ), Ҷағар (ئەغاڭ), Ҳәхт (< ar. حَخْتَ), дәрәх – дарақ – дарах (< toj. daraxt), дос (< toj. do'st), дох'tър (< rus. -int – doktor) kabi.

Shevalararo leksik farqlar deganda ayni bir so'zning turli shevalarda turlicha talaffuz qilinishi emas, balki bir narsani yoki holatni boshqa-boshqa so'zlar orqali ifoda qilinishi tushuniladi. Masalan: Tosh. оғър – Farg'. кель – Xorazm. со:къ kabi.

Keyin esa shevalararo so'zlarning bir-biriga munosabatdoshligi masalasi yoritiladi. Bu munosabatdoshlik teng yoki nisbiy bo'lishi ham mumkinligiga misol keltiriladi (нәрвән – шатъ = teng, һонпәр – чекъч = nisbiy).

Bob oxirida mavzuga oid adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Darslikning asosiy boblari tugagach, amaliy mashg'ulotlar uchun turli shevalarga oid matnlari berilgan. Matnlar fonetik transkripsiya bilan berilgan.

V.V.Reshetov va Shonazar Shoabdurahmonovning 1962-yilda oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik sifatida nashr etilgan "O'zbek dialektologiyasi" kitobi bu sohadagi eng yirik tadqiqotlardan bo'ldi. Uzoq yillar davomida talabalar, ilmiy xodimlar va oliy o'quv yurti o'qituvchilari uchun asosiy dastur bo'lib xizmat qildi. Bu kitobda o'zbek dialektologiyasi bo'yicha ilk amalga oshirilgan ishlardan tortib, bu sohada erishilgan eng so'nggi natijalargacha qamrab olingan. Kitob uzoq yillar davomida ushbu fan bo'yicha o'zbek tilidagi yagona qo'llanma-darslik vazifasini bajardi. Ushbu darslik O'zbekistonda salkam 20 yil mobaynida shu sohaga oid yagona asosiy adabiyot bo'lib turdi. V.V. Reshetov va Shonazar Shoabdurahmonovlar ushbu darslikning 1978-yildagi nashrida o'n yildan oshiq davr mobaynida mutaxassislardan bildirilgan mulohazalarni hisobga olgan holda unga ayrim o'zgartirishlar kiritdilar. Masalan, "Turkiy tillar" deb nomlangan II bob to'lig'icha olib tashlandi. I bobdagi ayrim paragraflar: 4 – Dialektlarni har tomonlama o'rganish va tavsif qilish", 5 – "O'zbek tili sheva va dialektlarini o'rganishni planlashtirish", 7 – "Sheva va dialektlar sistemasi" paragraflari qisqartirildi. Barcha boblardagi adabiyotlar ro'yxati ham qisqartirilgan.

Shonazar Shoabdurahmonovning V.V.Reshetov bilan hamkorlikda tasnif qilgan "O'zbek dialektologiyasi" darsligi bu sohadagi dastlabki eng mukammal ishlardan biri bo'ldi va o'zidan keyingi shu sohaga oid darslik va qo'llanmalar, tadqiqotlar uchun asos vazifasini o'tadi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b.
2. Ишаев А. Шоназар Шоабдураҳмонов. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1983. № 3. – 68-
3. Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Тошкент, 1959.

4. Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта мактаб, 1962. – 360 б.
5. Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 232 б.
6. Шоабдураҳмонов Ш. Карлукское наречие узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1983. – 192 стр.
7. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Фан, 1962. – 372 б.
8. Фози Олим. Ўзбек лаҳжаларини таснифда бир тажриба. – Тошкент: Ўздавнашр, 1935. – 68 б.
9. Xidraliyeva Z.R. Vowel harmony features in ikan dialect //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 10, Issue 12, and December 2020. pp. 1177-1182.
10. Qodirov U. Qarluq lahjasi shevalarining o'rganilishi haqida. // "Terminologiya va dialektologiyaning zamonaviy masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand, 2023-yil 28-sentabr. – 307-312-b.

## SIYOSIY DISKURSNING LINGVISTIK MAQOMI THE LINGUISTIC STATUS OF POLITICAL DISCOURSE

Ro'ziyev Elbek\*

**Annotation.** Ushbu maqolada siyosiy diskurs tushunchasining lingvistik adabiyotlardagi izohi keltirib o'tilgan hamda siyosiy diskursning boshqa diskurs turlaridan farqli xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** diskurs, siyosiy lingvistika, siyosiy diskurs, siyosiy matn, siyosiy til

**Abstract.** In this article, the explanation of the concept of political discourse in linguistic literature is given and the features of political discourse different from other types of discourse are revealed.

**Keywords:** discourse, political lingvisticus, political text, political discourse, political language

Siyosiy lingvistikada "diskurs" tushunchasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Muloqotning dikurs nazariyasi mustaqil fan sohasi sifatida 1960-yillarning o'rtalarida shakllana boshladi. Bu davrda olimlarning tilni ajralmas aloqa vositasi sifatida qarashga intilishi matnlarni o'rganishda o'z ifodasini topdi. Tilshunoslik asta-sekin shakliy, formal-funksional doiradan chiqib, tilni mazmuniy, yaxlit, izchil o'rganishi asnosida diskurs atamasi ham faol qo'llanila boshlandi. Tilshunoslik asta-sekin gapni o'rganish doirasidan chetga chiqib, keyingi bosqich gaplar zanjiri – to'liqlik, yaxlitlik, izchillik va hokazo kabi belgilovchi xususiyatlarga ega bo'lgan matnni tahlil qilishga o'tdi [Темнова Е.Б, 2004: 32]. "Diskurs" atamasi faqtgina tilshunoslikning obyekti bo'libgina qolmasdan sotsiologiya, kulturologiya, pedagogika, yurispuridensiya sohalarining ham tadqiq obyekti bo'lib xizmat qiladi. Diskurs atamasining asl lug'aviy ma'nosi lotin tilidan (discursus so'zidan) kirib kelgan bo'lib, "harakat", "aylanish", "suhbat", "muloqot" degan ma'nolarni anglatadi. "Diskurs" lingvistik termin sifatida birinchi marta 1952-yilda amerikalik olim Z. Harrisning "Discourse analysis" kitobida keltirilgan [Harris Z.S., 1952: 16]. Diskurs atamasiga lingvistik lug'atlarda ham turlicha izohlar keltirib o'tilganini kuzatishimiz mumkin. Xususan, T.Jerebilo tomonidan yozilgan "Lingvistik terminlar lug'ati"da diskurs terminiga atroflicha to'xtalib o'tilgan. Discourse (nemischa diskurs, fransuzcha diskurs, inglizcha discourse) ikki xil ma'noni ifodlashi belgilangan: 1) asl ma'no - oqilona fikrlash. 2)

\* O'qituvchi. Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasи. E-pochta: elbek\_ruziyev@mail.ru

<i>Mahkamova D.</i>	Terminologik modernizatsiyada shakliy omilning voqelanishi	131
<i>Mamadjanova M.</i>	Miqdor maydonining o'zbek tilshunosligida o'rganilishi	134
<i>Davronova Z.</i>	Taxalluslarining o'ziga xos talqini va tahlili	138
<i>Ismailova H.</i>	Semantic and structural peculiarities of euphemisms	142
<i>Toshpo'latova N.</i>	O'zbek tilining frazeologik lug'atidagi emotsional-eksprissiv munosabat ifoda etuvchi frazemalar tahlili	145
<i>Qurbanova G.</i>	Metaforik ifodalarda astronimlar	150
<i>Xasanova M.</i>	Bilingvismning shaxsning intellektual rivojlanishiga ta'sirini baholash	155
<i>Sattarova N.</i>	Asaka tumani godonimlari tarkibida etnonimlarning o'rni	161
<i>Jamoliddinova I.</i>	O'zbek tilida "qat'iyat" konseptini ifodalovchi turg'un konstruksiyalar	165
<i>Alimardanov E.</i>	Jozef budensning "xiva tatarchasi" maqolasi xususida	168
<i>Norqulov F.</i>	O'zbek tili funksional uslub tasniflari va ularning xususiyatlari	172
<i>Xudoyberdiyeva G.</i>	Terminlar va umumleksik birliklarda polifunksionallik hodisasining o'rganilishi tahlili	176
<i>Quraqova Sh.</i>	Piktogrammalarning qo'llanilish doirasi (yo'naliш, belgilash va yo'l belgilari misolida)	178
<i>Qodirov U.</i>	Atoqli shevashunos olim	182
<i>Ro'ziyev E.</i>	Siyosiy diskursning lingvistik maqomi	186
<i>Turdialiyev A.</i>	Denov qipchoq shevalarining ba'zi xususiyatlari	191
<i>Kenjayev Z</i>	O'zbek tili oronimlarining hosil bo'lishi	196
<i>Журабоеева М.</i>	Роль узбекского языка в мире: анализ и перспективы	200
<i>Tashmatova N.</i>	"Gulshan ul-asror" asari leksikasida yasama so'zlar tahlili	203
<i>Yodgorov J.</i>	Badiiy matnda undov	207
<i>Qahharova S.</i>	Harakat usulini ifodalovchi fe'llarda troponim-gipernim munosabati	210
<i>Mirzayeva G.</i>	Neyrolingvistik tadqiqotlar xususida	213
<i>Muzaffarov Z.</i>	Lingvistik birliklarning she'riyatda qo'llanilishi. (Erkin Vohidov ijodi misolida)	215
<i>Imomov E.</i>	Issues of stabilization of basic lexical structure of profession	219
<i>Bekmurodov T.</i>	Jadidlar davrida matbuot va nashiryot terminlari	221
<i>Musurmonqulov A.</i>	Graduonimik darajalanish sistemaviy munosabatlarning bir ko'rinishi sifatida	224
<i>Malikova I.</i>	Til birliklarining paradigmatic munosabati	227
<i>Qudratova S.</i>	sotsiolingvistik tadqiqotlarning shakllanishi	230
<i>Mamirova X.</i>	Perseptiv lug'at va o'zbek bolalari ongida perseptiv lug'at shakllanishining psixolingvistik omillari	234
<i>Yokubbayeva U.</i>	"Yangi o'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida qo'llangan frazeologik birliklarning funksional-semantik tahlili xususida	237
<i>Allaberganova N.</i>	O'zbek tilidagi reklama matnlarida takrorlarning lingvokognitiv xususiyati	243
<i>Xojiyev Y.</i>	O'zbek tilida milliy xarakterning kichraytirish-erkalash affikslari orqali ifodalanishi	245
<i>Isaqova M.</i>	Lotin tilidan o'zlashgan xalqaro huquqiy terminlar	248
<i>Murotov H.</i>	Radio reklama matnlarida kommunikativ strategiya va taktikaning namoyon bo'lishi	251
<i>Abdujalilov M.</i>	O'xshatishlarning o'zbek va rus tilshunosligida o'rganilishi	256